

Date: 13th March-2026

**OILADA MODDIY YETISHMOVCHILIK HISSI SHAROITIDA KASBIY
FAOLIYAT MOTIVATSIYASI VA SHAXSNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK
MUNOSABATLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKLARI.**

Raximova Xusnora

Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

e-mail: rahimovaxusnora@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada moddiy yetishmovchilik hissida kasbiy faoliyat motivatsiyasining ichki, tashqi ijobiy va tashqi salbiy shakllari shaxsning ijtimoiy psixologik munosabatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar korrelyatsion tahlil asosida o'rganilib ichki motivatsiyaning mustaqillik va natijaga yo'naltirilganlik, tashqi ijobiy motivatsiyaning mehnat va natijaga yo'naltirilganligi hamda tashqi salbiy motivatsiyaning mustaqillik, jarayon, altruizm va moddiy qadriyatlarga munosabat bilan statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog'liqligi aniqlanib, kasbiy samaradorlik shaxsning motivatsion tizimi va ijtimoiy psixologik yo'naliganligining integrativ uyg'unligi asosida shakllanishi asoslab berildi

Kalit so'zlar: oilada moddiy yetishmovchilik hissi, kasbiy motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, mustaqillik, natijaga yo'naltirilganlik, altruizm, ijtimoiy-psixologik munosabatlar.

Kasbiy faoliyat motivatsiyasi shaxsning professional rivojlanishi, ish samaradorligi va psixologik barqarorligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Motivatsiya ichki (faoliyatdan qoniqish), tashqi ijobiy (mukofot, e'tirof, maqom) va tashqi salbiy (jazodan qochish, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv) shakllarda namoyon bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'nalishlari esa uning faoliyatga, jamiyatga va o'ziga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Oilada moddiy yetishmovchilik hissi shaxsning motivatsion tizimining shakllanishida, shuningdek, stressga chidamlilik va psixologik barqarorlik darajasida muhim rol o'ynaydi. Mazkur maqolada oiladagi moddiy yetishmovchilik hissi kontekstida kasbiy motivatsiyaning turli shakllari va shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'nalishlari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash va ularni psixologik jihatdan talqin qilinadi.

Tadqiqotda 420 nafar respondent ishtirok etib, ular turli kasb va ijtimoiy qatlam vakillaridan iborat bo'lib, ishtirok etish ixtiyoriy asosda amalga oshirildi. Respondentlar 25-45 yosh oraliqida bo'lib, barcha ishtirokchilar oilali. Tadqiqot natijalari Pearson korrelyatsion tahlili yordamida qayta ishlanib, $p \leq 0,05$ va $p \leq 0,01$ darajalarda statistik ahamiyatlilik baholandi. Korrelyatsion tahlil kasbiy motivatsiyaning turli shakllari va ijtimoiy-psixologik yo'nalishlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash imkonini berdi.



Date: 13th March-2026

Kasbiy faoliyat motivatsiyasi va shaxsning ijtimoiy-psixologik munosabatlarining bog'liklari (N=420)

	Jarayon	Mehnat	Natija	Mustaqillik	Altruizm	Hukmronlik	Egoizm	Pul
Ichki motivatsiya	0,052	0,104*	0,16**	0,305**	0,029	0,05	0,107*	0,091
Tashqi ijobiy motivatsiya	0,05	0,186**	0,235**	0,149**	0,059	0,100*	0,001	0,063
Tashqi salbiy motivatsiya	0,210**	0,018	0,141**	0,379**	0,141**	0,123*	0,086	0,126**

Izoh: * $p \leq 0,05$, ** $p \leq 0,01$

Natijalarga ko'ra Kasbiy faoliyat motivatsiyasining ayrim shakllari bilan shaxsning ijtimoiy-psixologik munosabatlari o'rtasida ma'lum darajada ijobiy bog'liqlik mavjud. Eng sezilarli korrelyatsiyalar ichki motivatsiyaning mustaqillik ($r=0,305$; $p \leq 0,01$) va natija ($r=0,160$; $p \leq 0,01$) o'lchovlari bilan, Tashqi ijobiy motivatsiyaning natija ($r=0,235$; $p \leq 0,01$) va mehnat ($r = 0,186$; $p \leq 0,01$) bilan, hamda Tashqi salbiy motivatsiyaning mustaqillik ($r=0,379$; $p \leq 0,01$) va jarayon ($r=0,210$; $p \leq 0,01$) o'lchovlari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Ichki motivatsiyaning mustaqillik bilan kuchli bog'liqligi shuni anglatadiki, ishga ichki rag'bat bilan yondashuvchi shaxslar odatda avtonom, o'z fikriga ega va mustaqil qaror qabul qiluvchi insonlar bo'ladilar. Ular tashqi mukofotlardan ko'ra, o'z mehnatidan olinadigan ichki qoniqish, o'zini rivojlantirish va professional o'sishdan motivatsiya oladilar. Mustaqillik bilan yuqori korrelyatsiya ($r=0,305$; $p \leq 0,01$) bu turdagi motivatsiyaning ichki nazorat markaziga ega shaxslarga xos ekanligini ko'rsatadi. Natijaga yo'naltirilganlik bilan ijobiy bog'liqlik ($r=0,160$; $p \leq 0,01$) ichki motivatsiyali shaxslarning o'z faoliyatida maqsadga erishish, sifat va samaradorlikka intilish kabi jihatlarni qadrlashlarini bildiradi. Ular natijani shaxsiy yutuq sifatida qabul qilib, o'z kasbiy faoliyatini o'z-o'zini namoyon etish shakli sifatida ko'radilar.

Tashqi ijobiy motivatsiya mehnat ($r=0,186$; $p \leq 0,01$), natija ($r=0,235$; $p \leq 0,01$) va mustaqillik ($r=0,149$; $p \leq 0,01$) bilan ijobiy bog'liq bo'lib, bu shaxslarning kasbiy faoliyatda tashqi e'tirof, mukofot yoki ijtimoiy maqom orqali rag'batlanishlarini ko'rsatadi. Bunday shaxslar o'z mehnatining natijasi boshqalar tomonidan qadrlanishini istaydilar. Ularning motivatsiyasi ko'proq ijtimoiy baho va e'tirof ehtiyoji bilan izohlanadi.

Hukmronlik bilan ijobiy bog'liqlik ($r=0,100$; $p \leq 0,05$) Tashqi ijobiy motivatsiyaning yana bir muhim jihatini ko'rsatadi: rahbarlikka moyil, boshqalarni yo'naltirishni xohlovchi shaxslar ko'pincha o'z faoliyatlarida muvaffaqiyat va e'tirofni ijtimoiy etakchilik orqali namoyon etadilar. Tashqi salbiy motivatsiyaning mustaqillik ($r=0,379$; $p \leq 0,01$), jarayon ($r=0,210$; $p \leq 0,01$), natija ($r=0,141$; $p \leq 0,01$), altruizm ($r=0,141$; $p \leq 0,01$), hukmronlik ($r=0,123$; $p \leq 0,05$) va pul ($r=0,126$; $p \leq 0,01$) bilan ijobiy bog'liqligi kuzatildi. Ushbu



Date: 13th March-2026

natijalar Tashqi salbiy motivatsiyaning asosan tashqi nazorat, jazodan qochish, tanqid yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv kabi mexanizmlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Mustaqillik bilan yuqori korrelyatsiya ($r=0,379$; $p\leq 0,01$) shuni anglatadiki, ba'zi shaxslar tashqi bosim yoki talablar ostida ham mustaqil harakat qilish orqali mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga intiladilar, bu esa Tashqi salbiy motivatsiyaning o'ziga xos paradoksal jihatini aks ettiradi. Jarayon va natija bilan ijobiy bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, bunday shaxslar uchun faoliyat jarayoni nazorat, xavotir va mukammallikka intilish bilan kechadi.

Altruizm bilan bog'liqlik ($r=0,141$; $p\leq 0,01$) esa Tashqi salbiy motivatsiyaning ijtimoiy yo'nalganligini bildiradi. Ya'ni, shaxslar boshqalarga yordam berish orqali o'zlarini ijobiy baholashadi, biroq bu ko'pincha salbiy his-tuyg'ulardan qochish (masalan, aybdorlik hissi) motivatsiyasi bilan birga kechadi. Pul bilan ijobiy bog'liqlik ($r=0,126$; $p\leq 0,01$) esa moliyaviy xavfsizlik ehtiyojining Tashqi salbiy motivatsiyada muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Boshqa ko'rsatkichlar jarayon, altruizm va egoizmning ayrim shakllarida past korrelyatsiyalar aniqlangan bo'lsa-da, ular statistik jihatdan ahamiyatli darajaga ega emas. Bu holat mazkur omillar kasbiy motivatsiyaning asosiy determinanti emasligini bildiradi. Umuman olganda, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kasbiy faoliyat motivatsiyasining turli shakllari shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'nalishlari bilan bevosita bog'liq. Ichki motivatsiya mustaqillik, o'zini rivojlantirish va ichki qoniqish ehtiyojiga asoslanadi; Tashqi ijobiy motivatsiya ijtimoiy e'tirof va baholanish istagini bildiradi; tashqi salbiy motivatsiya esa tashqi nazorat, mas'uliyat va qo'rquv orqali faoliyatni boshqarish mexanizmlarini aks ettiradi.

Shaxsda ichki motivatsiyani rivojlantirish va Tashqi salbiy motivatsiyani kamaytirish kasbiy faoliyat samaradorligi va ruhiy barqarorlikni oshirishda muhim psixologik omil sifatida qaraladi. Ichki motivatsiyali, mustaqil va o'z faoliyatidan ma'naviy qoniqish oluvchi shaxslar odatda barqaror kasbiy moslashuvga ega bo'ladilar va stress omillariga nisbatan psixologik chidamlilik ko'rsatadilar.

Oilada moddiy yetishmovchilik hissi shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir qiladi. Bunday sharoitlar mehnatsevarlik, natijaga yo'naltirilganlik va resurslarni tejash strategiyalarini rivojlantiradi, shu bilan birga o'zaro yordam va altruistik qadriyatlarni mustahkamlaydi. Moddiy cheklov hissi yuqori bo'lgan shaxslar ko'pincha motivatsion kompensatsiya orqali o'z-o'zini baholashni saqlaydi. Shu bilan birga, bu hissiyot depressiv kayfiyat va stressga moyillikni oshirishi mumkin. Qiyin vaziyatlardan chiqish qobiliyati esa shaxsning ichki resurslari, mustaqilligi va strategik qaror qabul qilishiga bog'liq. Umuman, oiladagi moddiy yetishmovchilik hissi shaxsning psixologik moslashuvchanligi va ijtimoiy qadriyatlarini shakllantiruvchi muhim determinant hisoblanadi.

Ichki motivatsiya shaxsning mustaqillik, avtonomiya va natijaga yo'naltirilganlik bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxsning professional faoliyatdan o'zini qoniqtirish va ichki o'sish orqali rag'batlanishini ko'rsatadi. Ichki motivatsiya yuqori bo'lgan shaxslar stressga nisbatan chidamli va qiyin vaziyatlarda ham o'zini boshqarish qobiliyatiga ega.



Date: 13th March-2026

Tashqi ijobiy motivatsiya mehnat natijasi, tashqi e'tirof va hukmronlik bilan bog'liq bo'lib, shaxslarning ijtimoiy baho va boshqalar tomonidan tasdiqlanishga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi. Bu motivatsiya shakli shaxsning ijtimoiy integratsiyasini mustahkamlash va faoliyat samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tashqi salbiy motivatsiya mustaqillik, jarayon, natija, altruizm va moliyaviy xavfsizlik bilan bog'liq bo'lib, tashqi nazorat, jazodan qo'rquv va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rquv orqali faoliyatni boshqarish mexanizmlarini aks ettiradi. Bu holat shaxsning xavfsizlikni saqlash va stressga chidamliligini oshirish bilan bog'liq paradoksal mexanizmni namoyon qiladi.

Oilaviy moddiy cheklov hissi kasbiy motivatsiyaning shakllanishida muhim determinant bo'lib, ichki motivatsiyani kuchaytiradi, tashqi salbiy motivatsiyani rag'batlantiradi, shuningdek, altruistik xatti-harakatlar va ijtimoiy integratsiyani rag'batlantiradi. Shu bilan birga, moddiy cheklov stress, xavotir va depressiv kayfiyat xavfini oshiradi, shaxsning psixologik barqarorligini sinovga qo'yadi.

Kasbiy motivatsiyaning har bir shakli shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, oiladagi moddiy cheklov hissi bu bog'liqlikni kuchaytiruvchi va shakllantiruvchi asosiy determinant hisoblanadi. Tadqiqot natijalari professional rivojlanish, motivatsion psixologiya va ijtimoiy psixologiya sohalarida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega

Oiladagi psixologik muhit va resurslar shaxsning motivatsion va psixologik rivojlanishida muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi. Resurslar etishmasligi shaxsda natijaga yo'naltirilganlik, mehnatsevarlik va resurslarni tejash strategiyalarini rivojlantiradi, shu bilan birga altruizm va ijtimoiy yordam kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi. Yuqori o'z-o'zini baholash esa mehnat va ijtimoiy faollik orqali motivatsion kompensatsiya hosil qilishga yordam beradi. Qiyin hayotiy sharoitlar esa depressiv holatlar va hukmronlik ehtiyojining ortishiga olib keladi, natijaga haddan tashqari yo'naltirilgan shaxslar ruhiy charchashga ko'proq moyil bo'ladi.

Shaxsning qiyin vaziyatlardan chiqish qobiliyati mustaqillik, egoizm, natijaga yo'naltirilganlik va moliyaviy qadriyatlarga bog'liq bo'lib, ichki resurslarga tayanish va faol echim topish strategiyasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, oiladagi resurslar etishmasligi shaxsiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi: ijobiy tomoni motivatsiya, moslashuvchanlik, altruizm va mehnat orqali o'zini tasdiqlashda, salbiy tomoni esa depressiya, ichki bosim va ruhiy charchashda namoyon bo'ladi.

Shaxsning kasbiy motivatsiyasi, ijtimoiy-psixologik munosabatlari va ruhiy holati kasbiy faoliyat turi va oiladagi resurslar bilan uzviy bog'liq. Shu bois psixologik va motivatsion yordam dasturlarini ishlab chiqishda kasbiy yo'nalish, oylik daromaddan qoniqish va oilaviy psixologik muhitni hisobga olish zarur bo'ladi. Bu shaxsning psixologik barqarorligini saqlash, motivatsion potentsialini oshirish va ijtimoiy-faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik Toshkent



Date: 13th March-2026

2002. 103-121b.

2. Karimova V.M., G'oyibova N.A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi: O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2018. – B. 111 (208).

3. Deci, E.L and Ryan, R. M. (2000). The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. *Psychological Inquiry*, 11(4), 227–268.

4. Ryan R.M. and Deci E.L. (2017). *Self-determination theory: Basic psychological needs in motivation, development, and wellness*. New York, NY: Guilford Press.

5. Bandura, A. *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. W.H. Freeman. 1997.

6. Baratov Sh.R. *Psixologiya nazariyasi va tarixi: Darslik / Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O.R. -Toshkent: «O'zbekiston favlasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. - 504 b.*

